



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИБ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ganjina Azimova NOYOB KITOBLAR FONDI O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA.....	5
2. Елена Гордеева СТРОИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ РАННИХ ЗЕМЛЕДЕЛЬЦЕВ ДРЕВНЕГО ШАША.....	11
3. Mohinur Isaqova YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT QURISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY ANAMIYATI.....	16
4. Pyos Oqbo‘tayev KOREYS XALQINING TO‘LJANJI MAROSIMI VA UNING TRANSFORMATSIYASI.....	22
5. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ.....	29
6. Xumora Pozilova TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL IDISHLARLARNING TARIXIY ILDIZLARI, XRONOLOGIYASI, TARQALISH GEOGRAFIYASI VA O‘RGANILISHI.....	39
7. Murod Raxmatov “YANGI TURKISTON” JURNALI – MA’RIFAT VA KURASH MINBARI.....	46
8. Boburjon Teshaboyev FUQARO MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	51
9. Baxtiyor Xalmuratov “YOMG‘IR” RAMZI BILAN BOG‘LIQ XALQ QARASHLARI.....	58
10. Хулкар Холикулова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКISTONДА “ЛИДЕР АЁЛ” ВА “ЗАМОНАВИЙ АЁЛ” ТУШУНЧАЛАРИ.....	66
11. Шахноза Холикулова ЎЗБЕКISTONДА 1930-1940 ЙИЛЛАРДА КИМЁВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ САНОАТЛАШУВИ ТАРИХИ.....	71
12. Рашид Холмуродов ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ.....	77



Murod G‘aybullayevich Raxmatov,
Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: raxmatov.80@bk.ru

“YANGI TURKISTON” JURNALI – MA’RIFAT VA KURASH MINBARI

For citation: Murod G. Rakhmatov. “NEW TURKISTAN” MAGAZINE - A PLATFORM FOR ENLIGHTENMENT AND STRUGGLE. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17253147>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Istanbulda nashr qilingan “Yangi Turkiston” jurnali arxiv fondlari, milliy va xorijiy davriy matbuot ma’lumotlari asosida ilmiy yoritilgan. Mazkur jurnal Istanbulda yashayotgan turkistonlik muhojirlar yaratgan nashrlardan biri bo‘lib, unda nafaqat siyosiy mustaqillik g‘oyalari ilgari surilgan, balki u Turkiston xalqining ma’naviy uyg‘onishiga xizmat qilgan ma’rifat va kurash minbariga aylangan. “Yangi Turkiston” jurnali ilk sonidan boshlab Turkiston mustaqilligi, milliy uyg‘onish, tarixiy o‘zlikni anglash, musulmon dunyosining birligi kabi mavzularni ko‘tarib chiqqanligi ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: “Yeni Türkistan”, arxiv, ekspeditsiya, inqilob, matbuot, mustamlaka, mustaqillik, muhojir, totalitar, partiya, g‘oya, sovet, hukumat, qurultoy, mafkura.

Мурод Гайбуллаевич Рахматов,
Независимый научный сотрудник
Навоийского государственного университета,
Доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
E-mail: rakhmatov.80@bk.ru

ЖУРНАЛ “ЯНГИ ТУРКЕСТАН” – ПЛАТФОРМА ПРОСВЕЩЕНИЯ И БОРЬБЫ

АННОТАЦИЯ

В статье дается научное освещение журнала «Янги Туркестан», издававшегося в Стамбуле, на основе архивных фондов, информации национальной и зарубежной периодической печати. Этот журнал – одно из изданий, созданных туркестанскими переселенцами, проживающими в Стамбуле, и не только пропагандировал идеи политической независимости, но и стал площадкой для просвещения и борьбы, служившей духовному пробуждению туркестанского народа. Научно проанализирован тот факт, что журнал «Янги Туркестан» с первого номера поднимал такие темы, как независимость Туркестана, национальное пробуждение, осознание исторической идентичности и единство мусульманского мира.

Ключевые слова: “Янги Туркестан”, архив, экспедиция, революция, пресса, колония, независимость, эмигрант, тоталитарный, партия, идея, советский, правительство, съезд, идеология.

Murod G. Rakhmatov,
Independent researcher at Navoi State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
E-mail: rakhmatov.80@bk.ru

“NEW TURKISTAN” MAGAZINE - A PLATFORM FOR ENLIGHTENMENT AND STRUGGLE

ABSTRACT

This article provides scientific coverage of the “new Turkistan” magazine published in Istanbul based on archival funds, national and foreign periodical press information. This magazine, one of the publications created by Turkestan settlers living in Istanbul, not only promoted ideas of political independence but also became a platform for education and struggle, serving the spiritual awakening of the Turkestan people. A scholarly analysis has shown that, from its very first issue, Yangi Turkestan addressed themes such as Turkestan's independence, national awakening, awareness of historical identity, and the unity of the Muslim world.

Index Terms: “New Turkistan”, archive, expedition, revolution, press, colony, independence, emigrant, totalitarian, party, idea, Soviet, government, congress, ideology.

Kirish

XX asr boshlarida Turkiston xalqlari tarix sahnasiga milliy uygʻonish, istiqloq va maʼrifat uchun kurash gʻoyalari bilan qaytdi. Bu davrda siyosiy bosim va mustamlaka zulmiga qaramay, xalq ichida milliy ong, oʻzlikni anglash va erkinlik istagi kuchayib bordi. Aynan shu tarixiy jarayonda diasporadagi ziyolilar, xususan, Istanbulda yashayotgan turkistonlik muhojirlar oʻz xalqining ovozini dunyoga eshittirish, ularning erki va huquqlarini himoya qilish maqsadida matbuot sahnasiga chiqdilar. Ular yaratgan nashrlardan biri – “Yangi Turkiston” jurnali boʻlib, u 1927-yil iyun oyidan boshlab Istanbulda nashr etila boshlandi. Ushbu jurnal nafaqat siyosiy mustaqillik gʻoyalarini ilgari surdi, balki Turkiston xalqining maʼnaviy uygʻonishiga xizmat qilgan maʼrifat va kurash minbariga aylandi.

“Yangi Turkiston” jurnalining asoschilaridan biri va eng faol ijodkori – mashhur turkistonlik siyosiy arbob, jurnalist va muhojir ziyolisi Mustafa Choʻqoy (Mustafa Shokay) edi. U Sovet bosqinidan keyin vatanni tark etishga majbur boʻlgan va Turkiyada, keyinchalik Gʻarbiy Yevropada faoliyat yuritgan. Jurnal ilk sonidan boshlab Turkiston mustaqilligi, milliy uygʻonish, tarixiy oʻzlikni anglash, musulmon dunyosining birligi kabi mavzularni koʻtarib chiqdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Maqolani yoritishda R.Rajapova, R.Abdullayev, S.Aʼzamxoʻjayev, S.Inoyatov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, R.Shamsutdinov, S.Shodmonova, A.Mingnarov, Sh.Hayitov, D.Jamolova, O.Rashidov, U.Hayitov, A.Mahmudov, M.Darmonova, A.Yoʻldoshev va boshqa tarixchilarning tadqiqotlarida asarlaridan unumli foydalanildi. Muammoni oʻrganishda tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, umumlashtirish usullari qoʻllanilgan.

Muhokama

Istanbulda 1927-yil iyun oyida “Yeni Türkistan”[1] (“Yangi Turkiston”) jurnalining ilk soni chop etildi. Turkiston Milliy Birligi (TMB) yashirin tashkilot boʻlgani uchun faoliyatini ham maxfiy suratda olib borishga majbur edi. Shu tufayli jurnal muqovasiga uning qaysi tashkilot nashri ekanligi koʻrsatilmagan. Jurnal arab harfida, Turkiya turkchasida bosilgan. Unda siyosiy maqolalar, adabiyot va habarlar tarzida uch boʻlimdan iborat boʻlib, hajmi 32 sahifa edi. Muqovasiga “oyda bir chiqar adabiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy majmuadir”, deb yozilgan[2].

Avval aytib oʻtilganidek, 1927-yilning 15–29 mart kunlari Istanbulda Turkiston Milliy Birligi tashkilotining qurultoyi (kongressi) oʻtkazildi. Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻon, Usmon Xoʻja,

Mustafo Cho‘qay[3], Abdulqodir Sulaymon, Mustafo Shohquli, Ma‘mur Niyoziy qurultoyini o‘tkazish tashkilotchilari edilar. Qurultoy faoliyatiga Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on raislik qildi va Turkiston Milliy Birligi (TMB) tashkiloti qayta tashkil etildi. Mustafo Cho‘qayning taklifi bilan Turkiston Milliy Birligi tashkilotiga rais qilib Usmon Xo‘ja saylandi. Biroq Ahmad Zaki Validiyning raislik da‘vosi bilan qilgan injiqligi va xarxashasi natijasida oradan uch oy o‘tgach, 1927-yil 24-iyunda Usmon Xo‘ja o‘rniga bu lavozimga u qayta saylandi[4].

Usmon Xo‘ja muhojirlikda asosan Turkiya (1923–1938; 1944–1951; 1957–1968), bir muddat Afg‘oniston (1922–1923), Polsha (1938–1939), Eron (1939–1944), Pokiston (1951–1957) davlatlarida yashagan. Turkiston mustaqilligi uchun kurashni u mafkura maydoniga ko‘chirgan. Mustafo Cho‘qay va Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on bilan birgalikda Turkiston Milliy Birligi faoliyatida muhim rol o‘ynagan. Istanbulda arab va lotin imlosida Turkiya turkchasida “Yeni Türkistan” (“Yangi Turkiston”)[5] oylik jurnali (1927-yil iyun – 1931-yil oktyabr)ni chiqaradi. Jurnalning egasi va noshiri Usmon Xo‘ja, muharriri Ahmad Zaki Validiy edi. Jurnalning ilk soni 500 dona bosilgan, so‘ngra u 1000 nusxaga yetgan. Jurnal sahifalarida Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli kurash masalalarini yoritishga alohida e‘tibor qaratilgan. Keyinchalik jurnalga bir muddat Abdulqodir Inon bosh muharrir bo‘ldi[6]. Sovet bosqini ostida ezilgan Turkiston xalqlari uchun “Yangi Turkiston” jurnali erkinlik, adolat va mustaqillik uchun kurash minbari bo‘lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Usmon Xo‘ja 1927-yil mart oyida “Yeni Türkistan” jurnalini tashkil etib, unda o‘z maqolalari, risolasi va she‘rlari bilan ishtirok etdi. Jurnalning birinchi sonida Usmon Xo‘janing “Turkistonda turk adabiyotining mafkuraviy holatiga bir nazar” nomli maqolasi chop etilib, unda Fitrat, Cho‘lpon, Mag‘jon, Elbek, Botu singari millatparvar ijodkorlar haqida va milliy mafkura to‘g‘risida keng fikr yuritiladi[7]. Jurnalda bosh maqolalar asosan Usmon Xo‘ja tomonidan yozilgan. Biroq Validiyning talabi bilan Usmon Xo‘ja 1930-yil mart oyida “Yeni Türkistan” jurnalini imtiyoz sohibi va noshirlikidan voz kechib, iste‘fo berishga majbur bo‘ldi. Jurnalning imtiyoz sohibi qilib Nosir Hakimzoda, mas‘ul mudir etib TMB bosh kotibi doktor Majididdin Dalil tayinlandi[8].

Jurnalning bir qator sonlarida Usmon Xo‘janing maqolalari bilan birga uning uchta she‘ri ham bosilib chiqadi. Shunday she‘rlaridan biri 1922-yilning 4-avgustida Baljuvonda shahid bo‘lgan Anvar Posho xotirasiga atab o‘zbek tilida yozilgan “Intiqom... Ol intiqom” (1922-yil avgust) marsiyasi edi. Marsiyada ushbu satrlar mavjud:

Turklik qoni tomirlarda bugun qaynar;
Erta chiqib Turkistonda bayroq ochar,
Butun dunyo so‘zimizga quloq solar,
Har bir davlat kelib bizdan elchi so‘rar,
Intiqom... Ol intiqom![9]

Afsuski, Turkiya hukumati sovet davlatining tayziqlari ostida 1931-yil oktyabrda Istanbulda chiqayotgan “Yeni Türkistan” va boshqa turk muhojirlarining jurnallarini yopib qo‘ydi.

“Yeni Türkistan” jurnali orqali Usmon Xo‘ja turkistonliklarning xorijdagi ming-minglab farzandlarini milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Bugungi kunda ham jurnalda bosilgan maqolalar o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan emas[10].

Istanbulda chiqayotgan “Yangi Turkiston” majmuasining Turkiya hukumati tomonidan to‘xtalishi Berlinda bosilayotgan “Yosh Turkiston” jurnalida quyidagi tarzda sharhlanmasdan ochiq bildirilgan: “Yangi Turkiston” jurnali yoptirildi... “Yangi Turkiston” majmua o‘laroq Turkiston milliy istiqloli mafkurasini va zamonaviy turklik fikrini yoyishga, Turkiston va Anado‘lu orasidagi til va madaniy birlik sohasida katta xizmatlar qildi”[11].

Xabar ostiga ilova etilgan “Yashasin Turkiston milliy istiqloli! Yashasin butun turklarning madaniy birligi!” tilaklari jurnalning yopilish hodisasiga nisbatan noshirlar fikrini bildirib turibdi.

Turkiston Milliy Birligi (TMB) rahbarlari o‘zaro yozishmalarida majmuaning berkitilishi milliy kurashga zarba berganini aytib, bu noxush hodisani qoralasalar ham, ammo Turkiyaga

nisbatan xayrixoh munosabatlari o'zgarmagani diqqatni tortadi. Masalan, Mustaf Cho'qay 1931-yil 24-oktyabrda Majididdin Dalilga yozgan maktubida shu fikrlarni bildiradi:

“Shunday qilib bizning boshimizga ham bu falokat tushdi. “Yangi Turkiston”imiz yopdirildi. Dushmanlar suyunmoqda, do'stlar kuyunmoqda... Bizning azaldan abadga qadar do'st bilganimiz va do'st bo'lib qoladiganimiz Turkiya hukumati “Yangi Turkiston”ni bekitadi-da, biz hatto bunga raddiya ham bildirolmaymiz... Majididdinbek, majmuamiz yopildi deya turk hukumatiga yomon ko'z bilan boqolmaymiz. Faqat bu xabar o'quvchilarimizga juda yomon ta'sir qilishi aniq”[12].

Mustaf Cho'qay 1933-yil 13-iyulda Majididdin Dalilga yozgan boshqa bir maktubida Turkiyaga bog'langan orzu-umidlari va ayni paytdagi hukumatning noxush munosabatidan xafaligini shunday ifodalagan: “Turklikning siyosiy bir markazi yo'q. Bugungi muhit buni istamaydi. Turkiyaning siyosiy ma'nodagi fojiasi budir”[13].

Xullas, “Yangi Turkiston” jurnalining taqiqlanishi bilan birga TMBning Turkiyadagi ovozi ham tindirildi. Bu vaziyatda ham yangi imkon qidirgan TMB rahbarlari jamiyatning maslakdosh tashkiloti Turkiston turk yoshlar uyushmasi qoshida yangi bir jurnal ochish harakatiga tushdilar. Ammo TMBning bosh kotibi va yoshlar uyushmasining boshlig'i Majididdin Dalil tomonidan hukumatga qilingan rasmiy murojaatlaridan natija chiqmadi, rasmiy maqomlar yozma talablarga hatto javob ham qaytarmadi.

“Yangi Turkiston”, “O'tli yurt” va “Bildirish” jurnallarining yopilishi oqibatida muhojir turklarning Turkiyada chiqadigan birorta ham nashri qolmadi. Ayni shu chog'da Validiy va do'stlari tomonidan 1928-yilda qurilgan Turkiston va Ozarboyjonni o'rganish jamiyati a'zolari maydonga tushdilar. 1932-yil yanvar oyida Ahmad Ja'faro'g'li mas'ul mudiri bo'lgan “Ozarboyjon yurt bilgisi” nomli yangi jurnal chop qilina boshlandi. Jurnalning ilmiy kengashi professor Fuod Ko'pro'lu, professor Zaki Validiy To'g'on, doktor Ahmad Og'ao'g'li, doktor Abdulqodir Inon va Ahmad Ja'faro'g'li kabi taniqli shaxslardan iborat edi. “Ozarboyjon yurt bilgisi” jurnali 1934-yilning dekabr oyigacha faoliyatini davom ettirib, jami 36 soni chiqqan.

Xulosa qilib aytganda, “Yangi Turkiston” va “Yosh Turkiston” jurnallari turkistonlik muhojirlarning mustaqillik uchun kurashiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ularda bosilgan maqolalarda Turkistonda majburan o'rnatilgan sovet davlatining mohiyati aniq ko'rsatilib, bolsheviklarga qarshi mafkura jabhasida olib borilgan kurash yoritilgan. Bolsheviklarning xalqqa qarshi qaratilgan qatag'on siyosati ochib tashlangan. Mazkur jurnallarni tashkil qilish va yuritishda Usmon Xo'ja, Mustaf Cho'qay, Ahmad Zaki Validiy va boshqa TMB a'zolarining mashaqqatli mehnati va jasorati yotadi. Ularning fidokorona harakati natijasida turli moddiy yetishmovchiliklar, iqtisodiy omillar, siyosiy va harbiy vaziyatning ta'siri, hatto jamiyat ichidagi ayrim bo'linishlar va ba'zi qiyinchiliklarga qaramasdan 4 yil davomida “Yangi Turkiston” va 10 yil davomida “Yosh Turkiston” jurnallarini Istanbul va Berlinda chop etilishi muhojirlarimizning Turkiston milliy mustaqilligi uchun kurashi tarixiga shonli sahifalar bo'lib bitildi.

Xulosa

“Yangi Turkiston” jurnali o'z davrining yirik siyosiy-ma'rifiy tribunasiga aylandi. U nafaqat muhojir ziyolilar, balki butun Turkiston xalqlari uchun yo'l ko'rsatkich, umid manbai va erkinlik uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda ham bu jurnal sahifalari mustamlaka zulmiga qarshi kurash, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlikning yorqin timsoli sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Türkistan'ın bağımsızlığına hizmet eden “Yeni Türkistan”dan seçilmiş makaleler. Ayaz Tahir Türkistan İdil-Ural vakfı. Proje sorumlusu ve editor Tülay Duran. – İstanbul: Aydoğan matbaası, 2005. – 488 s.

2. Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. Биринчи жилд. – Тошкент: “Тафаккур”, 2017. – Б. 257; Аhat Andican. Ceditizm'den bağımsızlığa. Hariçte Türkistan mücadelesi. – İstanbul: Tunç matbaacılık, 2003. – S. 340; A. Ahat Andican. Turkestan struggle abroad. From Jadidism to Independence. – Haarlem: Sota Publications, 2003. – P. 365.

3. Qarang: Мустафа Шоқай. Шығармаларының толық жинағы. Он екі том. Том III. Қурастырған, алғы сөз бен тусіндірмелерди жазған К. Естағамбетов. – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2012. – 668 стр.
4. Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. Биринчи жилд. – Тошкент: “Тафаккур”, 2017. – 266-269-бетлар.
5. Qarang: Türkistan’ın bağımsızlığına hizmet eden “Yeni Türkistan”dan seçilmiş makaleler. Ayaz Tahir Türkistan İdil-Ural vakfi. Proje sorumlusu ve editor Tülay Duran. – İstanbul: Aydoğan matbaası, 2005. – 488 s.
6. Qarang: Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. Биринчи жилд. – 257, 272-бетлар.
7. “Yeni Türkistan” журналі (Истанбул). 1927 йил март. №1. – 26-27-бетлар.
8. Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. Биринчи жилд. – 291-бет.
9. Qarang: Türkistanda Yenilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 - 1924. – Haarlem, Sota, 2001. – S. 433.
10. Qarang: Қ.Ражабов, Ш.Ҳайитов. Усмон Хўжа. – Тошкент : Abu matbuot-konsalt, 2011. – Б.15-18.
11. Qarang: Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. – Б. 313.
12. Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. Биринчи жилд. –Тошкент: “Тафаккур”, 2017. – Б. 314; Ahat Andican. Ceditizm’den bağımsızlığa. Hariçte Türkistan mücadelesi. – İstanbul: Tunç matbaacılık, 2003. – S. 325.
13. A. Ahat Andican. Turkestan struggle abroad. From Jadidism to Independence. – Haarlem: SOTA Publications, 2003. – P. 322.



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000